



INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

Botirova Surayyo Qahramon qizi
Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani
52-maktab boshlang'ich ta'lism
o'qituvchisi
qahramonovna@gmail.com

Annotatsiya: Prezidentimiz tomonidan 2023 yil – «Insonga e'tibor va sifatli ta'lism» yili deb e'lon qilindi. Sifatli ta'lism ortidan aholining yashash sifatining oshishi insonga berilayotgan e'tiborning yuksak ko'rinishidir. Hozirda yurtimiz fuqarolarining har biri ilm olish, ilmini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Mana shu imkoniyatlardan foydalanish har birimizning vazifamiz va burchimizdir.

Kalit so'zlar : ta'lism tizimi, yil nomi, prezidentimizning ta'lism haqida fikri va takliflari, inson manfaatlari

«Zakovat bor joyda ulug'lik, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi».
Yusuf Xos Hojib

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lism-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bugungi kunda, O'zbekistonda ta'lism tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lism, maktab va oliy ta'lism tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Prezidentimizning har bir islohoti ta'lismni tubdan isloh qilishga qaratilmoqda. Xususan, "Ta'lism to'g'risida" gi qonun ham bunga yaqqol misol., Ushbu qonunning maqsadi ta'lism sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat".(1-modda) ⁴

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20 dekabr kuni Toshkentdagi Kongress-xollda parlamentga Murojaatnoma yo'lladi. U o'z chiqishida kelgusi 2023 yilgi «**Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili**» deb nom berishni taklif qildi. Ushbu taklif yig'ilish qatnashchilari tomonidan gulduros qarsaklar bilan qo'llab-quvvatlandi.

Nega 2023 yilga bunday nom berildi? Prezident 2023 yilgi rejalarini to'g'ri olish uchun «juda katta-katta odamlarni pastlarga, birinchi marta mahallalargacha tushirilgani»ni ta'kidladi. «Qani, odamlarimiz nima istayapti? Nima niyatlari bor? Nimadan rozi, nimadan norozi? Kelajakka nima takliflari bor?», — degan savollarni qo'ydi davlat rahbari.

Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, 20 mingga yaqin takliflar muhokama qilingan. «Odamlarimiz ta'lism, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot yo'nalishlaridagi aniq-aniq

⁴ O'zbekiston Respublikasi "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni-Toshkent: 2020-yil 23-sentabr. 1-bet



masalalarni ko'tarib, ular bo'yicha tizimli yechimlarni ham taklif qilgan», — dedi prezident. Davlat rahbari ularni «hozirgi vaqtida odamlarni qiyayotgan va ertangi kunimizga, o'zgarishimizga, taraqqiyotimizga to'g'ri zamin yaratish bo'yicha takliflar» deb atadi.

«Men bu fikrlarni o'rganib, bir narsaga amin bo'ldim. Aholimiz bizdan maktab, bog'cha va shifoxonalar ko'paytirish, ta'lif va tibbiyot sifati oshirish; mahallada yo'l, suv, elektr, transport muammolari hal qilish; ish o'rinarini ko'paytirish, tadbirkorlikka yangi imkoniyatlar yaratishni; adolat ta'minlash, ovoragarchilik, byurokratiya, eng asosiysi, korrupsiyani yo'q qilishni kutmoqda. Ko'tarilgan masalalar aniq va o'rinnidir. Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz bu muammolarni yechishimiz shart», — dedi Mirziyoyev.

Prezident ko'tarilayotgan masalalarni hech kim chetdan kelib hal qilib bermasligini yana bir bor ta'kidladi: «Hech kim chetdan kelib — men har safar shu masalani aytaman — hech kim chetdan mahallaga kelib, rayonga kelib, viloyatga kelib, O'zbekistonga kelib, bularni hal qilib bermaydi, hech qachon. Faqat va faqat o'zimiz qilishimiz kerak. O'zimiz rejalarimizni hozirgi zamonga [moslab], munosib qaror, farmon, qonunlarimizni chiqarishiz kerak. Odamlarimizning tashabbusi, shijoati va salohiyatini ishga solish uchun barcha sharoitlarni yaratish asosiy vazifalarmiz bo'lib qolishi kerak».

Shavkat Mirziyoyev xalqqa qancha imkoniyat yaratilsa, buning foydasi 10 karra, 100 karra bo'lib qaytishini, bunga so'nggi yillarda hamma guvohi bo'lib turganini aytib o'tdi. «Qancha sharoit yaratsak, shuncha odamlarimiz rozi bo'lib, o'z hayotini, o'z turmushini, o'z yo'nalishini, o'z rejalarini mutlaqo katta-katta pog'onada, baland rejalarini amalgalash yashirapti», — deya qayd etib o'tdi prezident.

Shundan so'ng, davlat rahbari yuqorida aytgan so'zlariga xulosa qilib, 2023 yilga O'zbekistonda «Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili» deb nom berishni taklif qildi. Yig'ilganlar ushbu taklifni gulduros qarsaklar bilan olqishlab, qo'llab-quvvatladi. Prezident buning uchun yig'ilganlarga minnatdorchilik bildirdi.

«Inson qadri degan g'oyani hech qachon unutmasligimiz kerak. Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili deb e'lon qilishimiz, agar [buni] chuqur tahlil qilsak, juda ko'p o'ylandik, nimalar qo'yish mumkin, deb. Albatta, kechagi qilgan ishimiz bilan bugungisining davomiyligi, bardavomligi bo'lishi kerak. Bardavomlik nuqtai nazardan, yana va yana Inson qadri degan g'oya yillarga qo'shilib davom etishi kerak. Shuning uchun „Insonga e'tibor va sifatli ta'lif“ [deb nom qo'ydik]», — deya tushuntirdi prezident.

«Insonga qachon e'tibor bo'ladi? Ta'lif, ta'lif, ta'lif va yana bir marta ta'lif. Men olti yil oldin shu masalalarga chuqur e'tibor qilib, birinchi kundan beri ta'limimiz haqida ko'p gapiraman. Agar ta'lif bo'lsa, bilim bo'lsa, sifat o'zgaradi. Ta'lif bo'lmasa, sifat o'zgarmasa, e'tibor ham o'zgarmaydi», — dedi Mirziyoyev.



«Nima uchun yilga bunday nom beryapmiz? Biz O'zbekistonda olib borayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgilaganmiz. Aslida ham bizning eng bebaho boyligimiz bu — bunyodkor xalqimiz, duogo'y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratish uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'lidan aslo to'xtamaymiz», — dedi davlat rahbari.

Prezidentning ta'kidlashicha, ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir: «Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek, „Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi“. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birlashtirishimiz zarur».

Shavkat Mirziyoyev o'qituvchi va murabbiylarning «obro'i joyiga qo'yilsa», maktablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oliygochlarda sifat o'zgarishlarin amalga oshirilsa, «butun harakatlarimiz ikki-uch karra o'zgarishi»ni aytib o'tdi. «Yutuqlar bizniki bo'ladi, faqat bilim kerak. Bilim kerak, nimaga desangiz, har birimiz orqamizga qarab, qanday buyuk ajdodlarning farzandi ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak», — deya qo'shimcha qildi prezident

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Homidiy H."Ko'hna Sharq darg'alari", T. 1999-y
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni-Toshkent: 2020-yil 23-sentabr. 33bet.1-b
3. B.Xodjaev "Umumiy pedagogika" Darslik. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
4. Qurbonova U. Qiyosiy pedagogika o'quv qo'llanma-2013y.
5. Najmiddinova G., Qurbonova U. Qiyosiy pedagogika darslik - 2014y.
6. Xodjayev B., Mutalipova M. Qiyosiy pedagogika - T.: 2015y
7. <https://kun.uz>
8. <https://mininnovation.uz>